M., “Просвещение», 1995, 255 с.
(2). Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. В.В.Давыдов. М., “Интор”, 1996, с. 56.
(3). Rayxanov Sh.R., Qosimov F.M. O‘quvchi ijodiy faoliyatini oshirishda mantiqiy topshiriqlarning roli. To‘plam. O‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari. Muammo va istiqbollar. Buxoro, 2002, 198-bet.
(4). E.G‘.G‘oziyev. Psixologiya. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2008, 351-bet.
(5). Фридман, Л.М. Как научиться решать задачи [текст]. Л.М.Фридман, Е.Н.Турецкий. М., “Просвещение”, 1984, 175 с.
(6). B.Y.Yagudayev. Ajoyib sonlar olamida. Toshkent, “Oqituvchi”, 1973, 230-bet.
(7). Karimova K.R. The Content and Essence of the Concept of Logical Problem in Primary Education. International Journal on Integrated Education. Volume 5, Issue 1, Jan, 2022, p .219–223.
(8). Mamatov M.Sh., Mamadjanova M.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda mantiqiy masalalarni o‘rni va ahamiyati. “Xalq ta’limi”, Toshkent, 2020, 5-son, 56–60-betlaar.

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: esanovas@mail.ru),
Tangirova Ruhshona (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi; e-mail: tangirovar@bk.ru)

XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Har bir xalqning kundalik hayotida xalq hunarmandchiligi namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq hunarmandchiligi xalqning tarixiy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi bebaho xazinadir. Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, uning pedagogik imkoniyatlari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, talabalarda xalq hunarmandchiligiga oid bilimlarni rivojlantirishning yo‘nalishlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *xalq hunarmandchiligi, pedagogika, ijtimoiy kompetensiya, ta’lim-tarbiya, amaliy san’at.*

Эсанова Сарвиноз Уктамовна (Институт предпринимательства и педагогики Денова, преподаватель кафедры дошкольного образования; esanovas@mail.ru),
Тангирова Рухшона (Институт предпринимательства и педагогики Денова, студентка дошкольного образования; tangirovar@bk.ru)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАРОДНЫМИ ПРОМЫСЛАМИ

Аннотация. *Образцы народных промыслов играют важную роль в повседневной жизни каждого народа. Народные промыслы – бесценное сокровище, отражающее исторические ценности народа. В данной статье представлены взгляды на развитие социальных компетенций, связанных с народным ремеслом и его педагогическими возможностями. Также были проанализированы направления развития знаний учащихся о народных промыслах.*

Ключевые слова: *народные промыслы, педагогика, социальная компетентность, образование, практическое искусство.*

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denau, Teacher of the Department of Preschool Education; e-mail: esanovas@mail.ru),
Tangirova Rukhshona (Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denau, Student of Preschool Education e-mail: tangirovar@bk.ru)

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING COMPETENCES IN FOLK CRAFTS

Annotation. *Examples of folk crafts play an important role in the daily life of every nation. Folk crafts are a priceless treasure that reflects the historical values of the people. This article presents views on the development of social competencies related to folk crafts and their pedagogical possibilities. The directions of development of students’ knowledge about folk crafts were also analyzed.*

Key words: *folk crafts, pedagogy, social competence, education, practical art.*

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanining joriy etilishi yoshlarni mehnatga o‘rgatish, bilimli avlodni shakllantirish va ularni rivojlanayotgan ijtimoiy va bozor sharoitlariga moslashtirishga prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda har tomonlama rivojlangan, kreativ fikrlaydigan talabalarni tarbiyalash maktab ta’limining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa maktab o‘quvchilarini tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish, o‘smirlarda ijodiy mehnatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishni taqozo etadi. Zamonaviy maktab ya-

ngi mazmun va yangi pedagogik texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etuvchi ijodiy laboratoriya bo'lishi lozimligi davr talabiga aylanib bormoqda. U o'quvchilarning o'zini shaxs sifatida anglashidan boshlab, ijtimoiy yetuklik va kasbiy rivojlanishgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonini ta'minlashi kerak.

Ko'p asrlar davomida dekorativ-amaliy san'at va xalq hunarmandchiligi bolalarni ma'naviy va ijodiy tarbiyalash vositalaridan biri bo'lgan hamda pedagogik katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib kelgan. Dunyoning boshqa hech bir mamlakatida bizning yurtimiz kabi turli xil xalq hunarmandchiligi sohalari mavjud emas. Chuqur tarixga ega bo'lgan xalq hunarmandchiligi an'analari asrlar davomida rivojlanib, takomillashib kelmoqda, naqsh va bezaklar texnologik mahorat bilan birga avloddan avlodga o'tib bormoqda.

Xalq hunarmandchiligi jamiyatning ma'naviy hayotidan ko'chirilgan, yetuk shaxsni tarbiyalashda ishtirok etuvchi, uning ijtimoiy tajribasini shakllantiruvchi an'analar, yangilik va me'yorlarni zamonaviy madaniyatda o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalarga xalq madaniyatining mohiyatida mujassam bo'lgan urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining milliy o'ziga xosligini ko'rsatish zarur. San'at o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, intellekt faollashadi, his-tuyg'ular barqarorlashadi. Bolalarni ijod bilan tanishtirish yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning eng to'g'ri yo'lidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari masalasi bo'yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular qatoriga N.G.Alekseev [3], S.Gruzenberg [4], K.Dunker [2], Y.L.Lvova [5], A.Nekrasova kabilarni alohida qayd etish joiz. Ushbu tadqiqotchilar o'z izlanishlari orqali xalq hunarmandchiligining pedagogik jihatlarini, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishdagi rolini asoslab berishga harakat qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari mavzusiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning pedagogika fanlari sohasida qo'llaniladigan analish, sintez, kuzatish, induksiya, deduksiya kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xalq badiiy hunarmandchiligi hamunalaridan pedagogik jarayonlarda professional foydalanish va bolalarning estetik tarbiyasi XV asrda boshlangan. U umuminsoniy qadriyatlarga va ularni avloddan avlodga yetkazish usullariga katta ta'sir ko'rsata oldi. XX asrning 20-yillarida sovet pedagogika fani, xalq ta'limi, jumladan, o'quvchilarga estetik tarbiya berish amaliyotiga asos solingan. 1918-yil oktabrda e'lon qilingan "Yagona mehnat maktabining asosiy tamoyillari" hujjatida shunday deyilgan edi: "Umuman olganda, estetik tarbiya ba'zi bir soddalashtirilgan bolalar san'atini o'rgatish emas, balki hissiyotlar va ijodiy xususiyatlarni tizimli ravishda rivojlantirishni anglatishi kerak. Bu elementdan xoli mehnat va ilmiy ta'lim ruhsiz bo'lar edi, chunki hayot quvonchi mehnat va ilmning oliy maqsadidir" [4;18-b.].

Pedagogikaning xilma-xil tarbiyaviy maqsadlarida: estetik tarbiya va tabiat vositalari, ijtimoiy foydali mehnat va san'atning barcha turlari orqali tarbiyalash katta o'rin egallaydi.

Taniqli psixolog P.P.Blonskiy o'quv materialini qadimgi xalq dunyoqarashining xususiyatlarini saqlab qolgan bolalik xususiyatlariga yaqinlashtirish lozimligiga alohida urg'u beradi. "Biz, – deb yozadi P.P. Blonskiy, – bolani o'rgatishda, bolaning ongi bizga qaraganda xalqqa va qadimiylikka yaqinroq ekanligini doimo yodda tutishimiz kerak. Shuning uchun ham o'rganishning boshlang'ich nuqtasi bolalar, xalq va qadimiy san'atdir" [2;107-b.].

Bugungi globallashuv sharoitida maktab umuminsoniy qadriyatlarni e'tibordan chetda qoldirmasdan, o'quvchilarni o'z xalqining tarixiy ildizlari va an'analariga, millatlararo munosabatlarga, diniy bag'rikenglikka, o'z xalqining tarixiy ildizlariga g'amxo'rlik qilishga o'rgatuvchi madaniyat markaziga aylanishi lozim. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi yosh avlodni bu borada oldingi ajdodlar tomonidan yaratilgan xalq hunarmandchiligi namunalarini o'zlashtirish asosida ma'naviy va moddiy qadriyatlarni yaratishga tayyorlashdir. An'analar xalq, millat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini jamlab, g'oyaviy-axloqiy, mehnat va estetik madaniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ularga qo'shilish orqali navqiron avlod falsafiy, psixologik, g'oyaviy-axloqiy-estetik mazmunni o'ziga singdiradi, milliy o'ziga xoslikni, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirishga ijodiy munosabatni shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan ham keyingi yillarda xalq hunarmandchiligi namunalaridan shaxsning barkamol rivojlanishining uzviy qismi va eng muhim omili sifatida foydalangan holda badiiy-estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti muammolariga e'tibor kuchaymoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda umumta'lim maktabining asosiy e'tiborini milliy ta'limni rivojlantirish va milliy maktabni tiklash muammolarini ishlab chi-

qishga qa-ratish kerak. Ammo bu o‘tmishga qaytishni anglatmaydi. Bular milliy madaniyatni ijodiy o‘zgartirishni amalga oshiradigan va o‘quvchilarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga moslashtiradigan metodlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib ‚O‘zbekistonda har bir yosh avlod vakilini ona xalqining qadriyatlari va an’analarining tashuvchisi sifatida shakllantirish, uning kamolotiga ko‘maklashish respublika ta’lim muassasalarining eng muhim vazifasi hisoblanadi [3;98-b.].

Bugungi kunda o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Bolaning xalq amaliy san’atining madaniy ahamiyati va xususiyatlari haqidagi g‘oyalarini shakllantirish.

2. “Texnologiya” fani tarkibida xalq hunarmandchiligi namunalari bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularni chuqurlashtirilgan tartibda tashkil etish.

3. Badiiy hunarmandchilikning ayrim turlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish.

4. Xalq hunarmandchiligining obrazli motivlarini namoyish qilish, bu orqali o‘quvchilarda badiiy tasvirni yaratish qobiliyatibi rivojlantirish.

5. Ijodkorlikning turli shakllari orqali bolaning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish [5; 14-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xalq hunarmandchiligi asosida maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish holatini o‘rganar ekanmiz, biz ushbu faoliyat turining samarali bo‘lishi bevosita o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita aloqador degan xulosaga keldik. Umuman aytganda, o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish ularni kelgusida mehnatsevar, o‘z xalqning tarixi, moddiy-ma’naviy qadriyatlarini hurmat qiluvchi, ularni yanada rivojlantirishga harakat qiluvchi shaxs bo‘lib shakllanishlarida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 30.12.2021. Lex.uz.

(2). Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. Berlin, Springer, 1935.

(3). Алексеев Н.Г, Юдин Э.Г. О психологических методах изучения творчества. Проблемы научного творчества в современной психологии. М., 1971.

(4). Грузенберг, Сергей. Книжные знаки. М., “Художественная печать”, 1924, 21 с.

(5). Львова Ю.Л. Творческая лаборатория учителя. Из опыта работы. 2-е изд., перераб. и доп., М., “Просвещение”, 1985, 158 с.

Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna (Urganch Ranch Texnologiya universiteti “Pedagogika va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

BO‘LG‘USI O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lg‘usi o‘qituvchi faoliyatidagi innovatsion yondashuvlar va ularning usul vositalari haqida fikr yuritilgan. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri bo‘lgan ijodkorlik, yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga, ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qila olishi nazarda tutiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik mahorat, kasbiy mahorat, muomala madaniyati.*

Худайберганова Наргиса Курбанбаевна (Ургенч Ранч технологический университет, кафедра «Педагогика и точные науки», старший преподаватель)

ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ

Аннатация. *В статье рассматриваются инновационные подходы к работе будущего учителя и их методы. Креативность является одной из основных характеристик инновационной деятельности будущего учителя при изучении нового и использовании его в своей работе. Предполагается, что он умеет это применять и пропагандировать в педагогической среде.*

Ключевые слова: *педагог, деятельность, инновация, инновационная деятельность, педагогическое мастерство, профессиональное мастерство, культура обращения.*